

KIBER JINOYATLARNI TERGOV QILISH MUAMMOLARI

Baxriddinov Sevinchbek Zavqiddin o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 4-bosqich talabasi

sevinchbekk200316@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada kiber jinoyatlarni tergov qilish muammolari tahlil qilingan bo'lib, unda tergov faoliyati, tergovchi, surishtiruvchi hamda ekspert va mutaxassis faoliyati bilan bog'liq ayrim muammo va kamchiliklar bayon etilgan. Bundan tashqari jinoyatchilikni oldini masalalari, jinoyatlarni sodir etish mexanizmi, ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilish va fosh etish bilan shug'ullanuvchi tergovchi va mutaxassislarga qo'yilgan malaka talablari hamda tergov va sud amaliyoti materiallarini tizimlashtirishning o'ziga xos jihatlari bayon etilgan. Shuningdek, maqolada ushbu tergov jarayonining prosessual normalarga nisbatan nomufligi, ekspertiza xulosalarining murakkab jihatlari, ilmiy-nazariy jihatdan sohaga oid xususiy kriminalistik uslubiyotlarni ishlab chiqish va ushbu sohaga tegishli mutaxassislarni tayyorlash masalalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kiber jinoyat, raqamli ekspertiza, virtual makon, meta-ma'lumotlar, ekspert, mutaxassis, maxsus bilim.

ПРОБЛЕМЫ РАССЛЕДОВАНИЯ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ

Бакриддинов Севинчбек Завкиддин угли

Ташкентский государственный юридический университет

Студент 4 курса факультета уголовного правосудия

sevinchbekk200316@gmail.com

Аннотация: в статье анализируются проблемы расследования киберпреступлений, описываются некоторые проблемы и недостатки, связанные с оперативно-розыскной деятельностью, деятельностью следователей, дознавателей, экспертов и специалистов. Кроме того, SJIF: 5.051

освещаются вопросы профилактики преступлений, механизм совершения преступлений, квалификационные требования к следователям и специалистам, привлекаемым к расследованию и раскрытию данного вида преступлений, а также особенности систематизации материалов следственной и судебной практики. В статье также рассматриваются вопросы несоответствия данного следственного процесса процессуальным нормам, сложности экспертных заключений, разработки научно-теоретических специальных криминалистических методик в этой области, подготовки специалистов в этой области.

Ключевые слова: киберпреступность, цифровая криминалистика, виртуальное пространство, метаданные, эксперт, специалист, специальные знания.

PROBLEMS OF INVESTIGATING CYBER CRIMES

Bakhriddinov Sevinchbek Zavqiddin ugli

Tashkent State University of Law

4th year student of the Faculty of Criminal Justice

sevinchbekk200316@gmail.com

Abstract: *this article analyzes the problems of investigating cyber crimes, describes some problems and shortcomings related to investigative activities, the activities of investigators, inquiry officers, experts and specialists. In addition, the issues of crime prevention, the mechanism of committing crimes, the qualification requirements for investigators and specialists involved in the investigation and disclosure of this type of crimes, and the specific aspects of systematization of materials from investigative and judicial practice are described. The article also discusses the inconsistency of this investigative process with procedural norms, the complex aspects of expert opinions, the development of scientific and theoretical approaches to the field of criminalistics and the training of specialists in this field.*

Keywords: *cybercrime, digital forensics, virtual space, metadata, expert, specialist, special knowledge.*

Kirish. Axborot texnologiyalari, raqamli qurilmalar va Internet tarmog‘ining keng joriy etilishi davlatning iqtisodiy-siyosiy faoliyati, jamiyat va fuqarolarning faol va samarali rivojlanishi uchun yangi, noyob imkoniyatlar yaratdi. Butun dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham axborot texnologiyalarining rivojlanishi kundalik turmushimizda mobil texnologiyalar, ular orqali amalga oshiriladigan to‘lovlar, bank tizimlarining butunlay Internet tarmog‘iga bog‘liqligi, bank mobil ilovalari orqali pul o‘tkazmalarini qo‘llash ko‘lamini kengaytirishga olib kelmoqda. Shu bilan birga, bunday texnologiyalarning jadal rivojlanishi ulardan jinoiy maqsadlarda foydalanish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratmoqda.

Natija. Vaqt o‘tgani sayin, texnik taraqqiyot jinoyatlarning yangi turlarini rivojlanishiga olib kelmoqda. Ulardan biri kiber jinoyatchilik, ya’ni virtual makonda sodir etilgan jinoyatlar majmuidir. Ushbu turdagi jinoyatlarning ko‘pligi hamda latentlik darajasining yuqori ekanligi yangi turdagi ekspertiza – raqamli ekspertizaning vujudga kelishiga olib keldi.

Xalqaro axborot xavfsizligi sohasidagi asosiy tahdid raqamli texnologiyalardan foydalanish, shu jumladan zararli kompyuter dasturlarini yaratish, ulardan foydalanish va tarqatish orqali kompyuter tizimlariga ruxsatsiz kirish bilan bog‘liq jinoyatlarning sodir etilishidir. Ko‘rinib turibdiki, kiber jinoyatchilik va raqamli texnologiyalar sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurash faoliyatiga global tus berilmoqda.

Materiallar va usullar. Mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, jinoyatchilikni oldini olish jarayoni ikki tomonlama harakatlar

majmuini o‘z ichiga oladi. Birinchidan, tergov amaliyotini rivojlantirish ya’ni jinoyatchilar ularni aniqlashlari kerakligiga ishonch hosil qilishlari lozim. Ikkinchidan, jinoyatchilarda jazoning mutlaqo qattiq bo‘lishidan qo‘rquv hissi bo‘lishi kerak.

O‘z navbatida, ushbu jinoyatning sodir etish mexanizmining murakkabligi va jinoyatchining maxsus sub’yekt ekanligi, shuningdek mutaxassis tayyorlash tizimi hamda nazariya va amaliyotga nisbatan texnologik taraqqiyotni tezligi sababli, kiber jinoyatlar tobora ko‘payib, o‘ta xavfli tus olmoqda.

Muhokama. Jinoyat sodir etish usuli jinoyatni tayyorlash, sodir etish va uni yashirish bo‘yicha jinoyatchining belgilangan harakatlari majmuidan iborat. Odatda, jinoyatchilar ushbu harakatlarni amalga oshirib, ma’lum izlarni qoldiradilar, bu keyinchalik sodir bo‘lgan voqeaning asl mohiyatini tiklashga, jinoyatchining jinoiy xatti-harakatining o‘ziga xosligi, uning shaxsiy ma’lumotlari haqida tasavvurga ega bo‘lishga imkon beradi. Binobarin, kompyuter ma’lumotlari nafaqat jinoiy tajavvuzning ob’yekti bo‘lishi mumkin, balki kompyuter ma’lumotlari jinoiy tajavvuzning dalili sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Tarmoq yoki qurilmalarda “raqamli izlar”ning doimiy mavjudligi, faqat raqamli axborotni qayta ishlash va uzatishning muqarrar yoki tabiiy natijasi emas. Bu narsa raqamli ekspertiza uchun ham ham emas, balki kiber ta’sir o‘tkazish maqsadida qasddan qabul qilingan muhandislik qarorlari natijasidir [1, b. 150].

Kiberjinoyatlarni tergov qilishdagi muammolardan biri ularni aniqlash va fosh etish bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning malakasi yetarli emasligidir. Aksariyat tergovchilar (surishtiruvchilar) da kiber jinoyatlarni tergov qilish uchun raqamli texnologiyalar borasidagi bilim va ko‘nikmalarning yetishmasligini ta’kidlashadi. Ko‘plab mutaxassislarning fikriga ko‘ra, ushbu muammoni hal qilish

uchun kiber jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha maxsus fanlarni joriy etish, o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish, shuningdek, raqamli dalillar va ular bilan ishlovchi texnologiya va dasturlarni o'rgatish bo'yicha seminarlar tashkil etilishi kerak.

Shu narsani tan olishimiz kerakki, kiber jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish huquqni muhofaza qiluvchi organlarning aksariyat xodimlari uchun juda qiyin vazifa bo'lib qolmoqda.

Bu qisman tergov va sud amaliyoti materiallarining tizimli umumlashtirilmaganligi, ushbu turdagi jinoyatlar bo'yicha tergovni tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalarning yo'qligi, aniq tergovchi va surishtiruvchilarning raqamli shaklda dalillar (elektron xabarlar, metama'lumotlar, tarmoqdagi izlar va h.k.) ning aniq manbalari bo'yicha tajribasi kamligi bilan bog'liq. Raqamli dalillar bilan ishlashning uslubiy qoidalari barcha prosessual huquq sohalari uchun bir xil majburiy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ushbu qoidalar shaxsning huquq va erkinliklari bilan bevosita bog'liq. Qolaversa, huquqni qo'llash amaliyotida raqamli dalillar bilan ishlash bo'yicha shakllangan turli amaliyotlarni unifikatsiya qilish ehtiyoji mavjud. Shu bois, mazkur qoidalar muayyan vakolatli sub'yekt tomonidan tasdiqlanishi hamda xalqaro amaliyot va standartlarga moslashtirilishi maqsadga muvofiqdir [2, b. 259].

Ilmiy-nazariy jihatdan soxaga oid xususiy kriminalistik uslubiyotlarni ishlab chiqish masalasi O'zbekiston sharoitida kam tadqiq etilgan yo'nalishlardan biridir. Bu borada, mamlakatimiz kriminalist olimlari tomonidan sohaning ayrim aspektlar o'rganilgan bo'lsada, ammo monografik tadqiqotlar deyarli o'tkazilmagan. Ushbu holatlar huquqni qo'llash amaliyotida turli prosessual va taktik xatoliklarni yuzaga kelishiga ham sabab bo'lmoqda [3].

Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalarida tegishli mutaxassislik bo'yicha kadrlarni tayyorlashning yetarli darajada emasligi ham ushbu sohadagi muammolarni asosiy sabablaridan biridir.

Ayni paytda virtual makonda saqlanadigan ma'lumotlar miqdori juda katta tezlikda oshib bormoqda, bu esa kiberjinoyatlarni tergov qilishda ulkan ma'lumotlar miqdori bilan ko'plab qiyinchiliklar olib kelmoqda. Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan dastlabki tergov muddati ushbu jinoyatlarni tergov qilish va ekspertiza uchun yetarli bo'lmaydi. Bu esa ushbu sohaning murakkabligi va o'rganilmaganligi bilan bevosita bog'liqdir.

Bundan tashqari, tergov va sud amaliyoti materiallarini kiber jinoyatlarning har bir turi bo'yicha umumlashtirish juda qiyinligi; jinoiy harakatlarni tergov qilishni tashkil etish bo'yicha ham, tergov harakatlarini o'tkazish taktikasi bo'yicha ham uslubiy tavsiyalarning yo'qligi; jinoyatlarni tergov qilishda ishtirok etayotgan shaxslarda maxsus bilimlarning etishmasligi bilan bog'liq bo'lgan ekspert xulosasining keyingi idrok etilishi. [4]

Yuqoridagilarni umumlashtirib, biz kiberjinoyatlarni tergov qilishning asosiy muammolari quyidagilardan iborat degan xulosaga kelishimiz mumkin:

- ✓ raqamli texnologiyalar sohasida malakali mutaxassislarning yetishmasligi;
- ✓ mavjud mutaxassislarning malakasi yetarli darajada emasligi;
- ✓ tergovga rasmiy (protsessual) yondashuvning mushkulligi;
- ✓ ekspertiza natijalarini izohlashning murakkabligi.

Xulosa. Yuqoridagi muammolarni hal qilish va kiberjinoyatlarni tergov qilish samaradorligini oshirish uchun quyidagilar zarur:

- maxsus bilimga ega mutaxassislar sonini ko'paytirish va ularni kiberjinoyatlarni tergov qilishga jalb etish zarur. Shuningdek, ushbu mutaxassislarning malakasini oshirish imkoniyatini ta'minlash lozim bo'ladi;

- ushbu soha eksperti, mutaxassislari va tergovchilarining maxsus bilimlarga ega ekanligini inobatga olgan holda, xato va noaniqliklarni hamda qonun talablarini buzish yoki undan chetga chiqishlarni bartaraf etish uchun ularning faoliyati ustidan puxta nazorat o'rnatish zarur. Prokuratura organlarida kiber jinoyatlar tergov ustidan maxsus nazorat boshqarmasi tashkil etish lozim;

- muammolarni hal qilish uchun tegishli ekspert xulosalari bilan bevosita ishlovchi shaxslarning axborot sohasidagi savodsizlikni bartaraf etish ham muhim ahamiyatga ega;

- ushbu toifadagi ishlarni tergov qilish uchun tergovchilarni (surishtiruvchilarni) tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish;

- kompyuter texnologiyalari sohasidagi tadqiqotlarga ixtisoslashgan mutaxassislarning texnik imkoniyatlarini oshirish;

- kiberjinoyatlarni tergov qilishning amaliy jihatlari bo'yicha ilmiy va uslubiy adabiyotlar hajmini oshirish.

Hozirgi vaqtda ushbu turdagi jinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, kiberjinoyatlarni fosh qilish qiyin vazifa bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Каримов Бобуржон. "Научно-теоретические вопросы категории цифровых доказательств" Review of law sciences, vol. 5, no. Спецвыпуск, 2020, p. 150. doi:10.24412/2181-919X-2020-149-153.

2. Астанов И., Хамидов Б. (2021). Общетеоретические вопросы, связанные с электронными или цифровыми доказательствами: проблема и решение. Общество и инновации, 2(7/S), 259–278.
<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss7/S-pp259-278>.

3. Khamidov Bakhtiyor Khamidovich et al. “General Theoretical Issues of Improving Private Forensic Methods In The Field Of Combat Against Cybercrime”. PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(1): 2705-2712 DOI: <https://doi.org/10.17762/pae.v58i1.1153>.

4. Михайлов Я. Компьютерно-технические экспертизы // Юридический блог. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://http://www.fin-lawyer.ru/>.